



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ANDIJON VILOYATI YOSHLARINING BUGUNGI KUNDA IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTDAGI O'ZGARISHLARI

Davronova Rashidaxon Kaxramon qizi
Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Andijon viloyati yoshlarining bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlari bayon qilingan bo'lib, Andijon viloyati yoshlarining bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlari mavzusi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kundagi ba'zi muammolarni ushbu maqolada keltirdik. Ilmiy maqolada viloyat hududdagi yoshlar bandligi, ta'lim sifati, tadbirkorlik imkoniyatlari ijtimoiy-iqtisodiy madaniyat va raqamli transformatsiya jarayonlarining ta'sirini tahlil qilinib va yoshlarimiz erishayotgan yutuqlari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, bandlik, tadbirkorlik, ijtimoiy rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, Andijon viloyati, yoshlar markazi

СОВРЕМЕННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Давронова Рашидахон Кахрамон кизи
Андижанский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье описываются текущие социально-экономические изменения в молодежной сфере Андижанской области, и тема этих изменений рассматривается как одна из наиболее актуальных. В статье представлены некоторые из существующих проблем. Научная статья анализирует влияние социально-экономической культуры и процессов цифровой трансформации на занятость молодежи, качество образования, возможности предпринимательства в регионе, а также предоставляет информацию о достижениях нашей молодежи.

Ключевые слова: молодежная политика, занятость, предпринимательство, социальное развитие, региональная экономика, цифровая трансформация, Андижанская область, молодежный центр.

CONTEMPORARY CHANGES IN THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF YOUTH IN ANDIJAN REGION

Davronova Rashidaxon Kaxramon qizi
Andijan State University, Independent Researcher

Abstract

This article describes the current socio-economic changes in the youth of the Andijan region, and the topic of the current socio-economic changes in the youth of the Andijan region is considered one of the most relevant issues. We have presented some of the current problems in this article. The scientific article analyzes the impact of socio-economic culture and digital transformation processes on youth employment, quality of education, entrepreneurship opportunities in the region, and provides information about the achievements of our youth.

Keywords: youth policy, employment, entrepreneurship, social development, regional economy, digital transformation, Andijan region, youth center.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 1991-yildan buyon O'zbekistonda yoshlarga oid ko'plab qonun hujjatlari, farmonlar va qarorlar qabul qilindi. Ular yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur qonun hujjatlarida millati, irqi, tili, dini, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha yoshlarning manfaatlari bir xil ma'noda ifodalanishi o'z aksini topdi.

“Biz XXI asr bo'sag'asida turibmiz, biz yangi buyuk ishlar oldida turibmiz. Siz bilan bizning vazifamiz davr oldimizga qo'yayotgan barcha talablarga munosib javob qaytarishdir. Istiqbolimizni aniq va ravshan tasavvur etib, xalqimizga tinch va farovon turmushni ta'minlashdir, jahon maydonida o'zimizga munosib o'rin egallashdir” [4, 48].

1991-yilda mamlakat yoshlarini birlashtiruvchi Yoshlar ittifoqi tashkiloti tuzildi. U yoshlarni o‘z plenumi va konferensiyalari qarorlarini bajarishga safarbar qilolmagani tufayli ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish muhim masalaga aylandi. Shu maqsadda bosqichma-bosqich huquqiy asoslar yaratildi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar va mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi natijasida jamiyatning ijtimoiy sohasida, xususan, xalq ta‘limida ham tub islohotlar ro‘y bermoqda. Ta‘lim tizimidagi yangilanish yoshlar ta‘lim-tarbiyasini takomillashtirish, uning mazmuni va uzluksizligini ta‘minlaydigan yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar hamda amaliyot uslublari bilan boyitilayotganini dastlab qabul qilingan qonunlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

1992-yil 2-iyunda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga ko‘ra, ta‘lim siyosati xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, ilm-fan va umuminsoniy qadriyatlar asosida yuritilishi belgilangan. Bilamizki, mamlakat taraqqiyoti har doim bilimli va yetuk kadrlarga bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli oliy ta‘lim tizimi ta‘limning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblangan.

1992-yilda O‘zbekistondagi 6 ta oliy ta‘lim muassasasida test sinovi asosida o‘qishga qabul qilish tajriba tariqasida amalga oshirildi. 1993-yilda esa 46 ta oliy ta‘lim muassasasining bir qismida test sinovlari o‘tkazildi. Ko‘plab yoshlarning orzulari ushala boshladi, o‘zlari o‘qishni istagan oliy o‘quv yurtlariga kirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ko‘plab yoshlar oliy ta‘limga kira olmagan bo‘lsa-da, ularning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish maqsadida aholini ijtimoiy himoyaga olish, ishsizlik turlari va sonini aniqlash bo‘yicha ishlar olib borildi. Yilning ikkinchi yarmida viloyatimiz bo‘yicha mehnat organlari va korxonatashkilotlar orqali 30 mingdan ortiq kishini ishga joylashtirish ko‘zda tutilgan. 21249 nafar ishsiz aholini ijtimoiy himoyaga olish, jumladan, 8491 nafar ishsizni kasbga qayta o‘qitish, ularga stipendiyalar berish va boshqa o‘qitish xarajatlari uchun 45 mln so‘m ajratish rejalashtirilgan. Vaqtincha jamoat ishlariga 5810 kishi jalb qilinib, 6,7 mln so‘m xarajat qilish mo‘ljallangan. Bundan tashqari, ishsizlarning oila a‘zolarini hisobga olgan holda 3500 kishiga 5,8 mln so‘m moddiy yordam ko‘rsatish, 16 mingga yaqin kishiga 28,5 mln so‘m ishsizlik nafaqasi tayinlash mo‘ljallangan. Yuqorida ko‘rsatilgan tadbirlar uchun jami 93 mln so‘m xarajat qilish rejalashtirilgan [7, MO734, 72, 3].

Mustaqilligimizning ilk davrlaridayoq ta‘lim bo‘yicha AQSH, Turkiya, Germaniya, Yaponiya, Angliya, Fransiya, Gollandiya hamda ko‘pgina davlatlarning mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan elchixonalari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan ta‘lim sohasida hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Natijada keyingi yillarda 3000 ga yaqin o‘quvchi xorijda ta‘lim oldi, mingdan ortiq o‘qituvchi ta‘lim tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan ta‘lim samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shma anjumanlar va seminarlar o‘tkazdi [6, 9–10].

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab sportni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar tuzildi va xalqaro maydonga chiqish uchun imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston 1994-yilda FIFAga a‘zo bo‘ldi va shu yili futbol bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi yozgi Osiyo o‘yinlarida chempionlikni qo‘lga kiritgani tarix zarvaraqlariga muhrlandi. Sport haqida gap ketar ekan, istiqloq Andijon sportchilari hayotida ham mutlaqo yangi sahifa ochib berdi, deya olamiz. Chunki 1990–1991-yillarda o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilgan respublika birinchiligining g‘olibi bo‘ldi.

M. Abdullayev 1997-yili Malayziya davlatining poytaxti Kuala-Lumpurda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida g‘alabaga erishdi. 1998-yilda esa Xitoyda bo‘lib o‘tgan jahon chempionati kubogini qo‘lga kiritdi. Bangkokda o‘tgan VIII Osiyo o‘yinlarining oltin medali sovrindori bo‘ldi. 1999-yilda Xyustonda jahon chempionati g‘olibiga aylangach, Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida Sidneyda bo‘lib o‘tadigan Olimpiada o‘yinlariga yo‘llanma oldi. Eng katta yutuq‘i 2000-yilda o‘tkazilgan yozgi Olimpiada o‘yinlarining final qismida amerikalik bokschi Rikardo Uilyamsni 27:20 hisobida mag‘lubiyatga uchratib, chempionlikni qo‘lga kiritgani bo‘ldi. Jahondagi eng nufuzli musobaqada birinchi bor Muhammadqodirni tarbiyalab, voyaga yetkazgan mustaqil O‘zbekistonimizning davlat madhiyasi yangradi. Bu respublikamizning jahon miqyosida erishgan katta g‘alabasi edi [6, 552].

Viloyatimiz yoshlarining sport sohasida erishgan yutuqlari bilan faxrlanar ekanmiz, Sergey Mixaylov, G‘ayrat Ahmedov, Bahodir Sultonov, Timur To‘lakovlarni eslamasdan ilojimiz yo‘q. Bu sportchilarimiz boks bo‘yicha Olimpiada o‘yinlari, jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib, xalqaro maydonlarda respublikamiz bayrog‘ini yanada baland ko‘tarishga erishgani viloyatimiz uchun katta yutuq hisoblanadi.

Eng katta yutuqlarimizdan yana biri — mustaqilligimizning dastlabki murakkab yillariga qaramasdan, viloyatimizda avtomobilsozlik sanoatiga asos solinganidir. Bu Vatanimizning dunyodagi avtomobil ishlab chiqaradigan 28 ta davlat qatoridan munosib joy olishiga sabab bo‘ldi. “O‘zbek mo‘jizasi”

nomiga sazovor bo'lgan Asaka shahrida bunyod etilgan avtomobil zavodi viloyatimiz yoshlari uchun katta motivatsiya bo'lib, ko'plab yoshlarimizning ish bilan ta'minlanishiga ham sabab bo'ldi.

1992-yil 3-iyulda Oliy Kengashimizning navbatdagi sessiyasida Janubiy Koreyalik ishbiarmonlar bilan birga Asaka shahriga kelishdan asosiy maqsad hamkorlarni Asaka shahrida avtomobil zavodi uchun tanlangan joy bilan tanishtirish ekanligi Birinchi Prezidentimiz tomonidan nutqda keltirilgan edi. Asaka — Andijon viloyatining yirik sanoat shahri hisoblanadi. U Andijondan Farg'ona va Marg'ilonga boradigan avtomobil yo'li kesishgan joyda, Shahrixonsoy sohilida joylashgan. Uning yon-atrofini ekinzorlar, dala maydonlari va bog'lardan iborat adirlar o'rab turadi. Bu go'zal va betakror shahar nafaqat ko'hna va navqiron Andijonning, balki mustaqil yurtimizning qiyofasini belgilab beradigan, diyorimizning ko'rku tarovatini o'zida namoyon etadigan avtomobilsozlar shahridir [5, 386].

Birinchi Prezidentimizning uzoqni ko'zlab tuzgan har bir rejasi o'z vaqtida amalga oshgani bilan e'tiborlidir. 1995-yil 25-mart kuni Asaka avtomobil zavodida "Damas" rusumidagi birinchi o'zbek avtomobili ishlab chiqarildi. Bu bejiz emas edi, chunki o'zbek xalqi bolajon xalq hisoblanadi va ushbu avtomobilga ko'pchilik sig'ishi inobatga olingan edi. Tarixdan hammaga ma'lumki, "sizlar faqat ketmon chopishdan boshqasiga yaramaysizlar", deb xo'rlangan xalq yoshlari bugun avtomobil ishlab chiqarayotgani eng katta yutug'imizdir. Shu yilning o'zida, ya'ni 15-iyun kuni "Tiko", 25-iyun kuni esa "Neksiya" rusumli avtomobillarni ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgani viloyatimizning tez sur'atda rivojlanishiga sabab bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

1996-yil 19-iyun kuni Asaka shahrida "UZDEU avto" qo'shma korxonasining taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu marosimda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov, "DEU" korporatsiyasi raisi Kim U Jun ishtirok etdi. Mustaqilligiga uncha ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, O'zbekistonning jahonda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 ta eng kuchli davlatlar qatorida bo'lishi xalqaro maydondagi eng katta g'alabalarimizdan biri edi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi. Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan sohalardan biri bu — yoshlar masalasidir. Yoshlarning iqtidori va iste'dodini yuzaga chiqarish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda jamiyatda o'z o'rnini mustahkam egallashiga ko'maklashish davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Bu borada "milliy tariximizni yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish zarur, jonajon Vatanimiz yoshlari ulug' ajdodlarimizga munosib bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur" [2, 25, 27], ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga yo'naltirish, bandligini ta'minlash, tashabbus va g'oyalarini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda yoshlar jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugun yoshlar siyosati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarni uch bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1-bosqich — O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillari (1991–2000-yillar);

2-bosqich — yoshlar yangi jamoat tashkilotiga birlashgan yillar (2001–2016-yillar);

3-bosqich — yoshlar siyosati yangilanishining eng yangi davri va O'zbekiston Yoshlar ittifoqining tashkil qilinishi (2016–2021-yillar) [8, 11].

Hududiy kesimda tahlil qilinadigan bo'lsa, Andijon viloyati demografik jihatdan yoshlar ulushi yuqori bo'lgan mintaqalardan biridir. Aholining sezilarli qismi 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolardan iborat bo'lib, bu holat hududda samarali yoshlar siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi.

Birinchi bosqich — Andijon viloyatining dastlabki yillari (1999–2000-yillar)da viloyatimizda kadrlar va ilmiy xodimlar tayyorlash, xalq xo'jaligi tarmoqlarini yuqori natijaga olib chiqish uchun yetuk malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ta'lim sohalarini rag'batlantirish, madaniyat va tilni rivojlantirish, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga harakat qilindi.

1992-yil 20-iyulda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o'qishga yuborish to'g'risida"gi qarori [<https://lex.uz/docs/479130>, 4] qabul qilindi. Bu qaror orqali viloyatimiz yoshlari ham chet elga chiqib o'qish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Turkiya va Germaniya davlatlarida tahsil olish uchun yoshlarimizda imkoniyat paydo bo'lishi dunyo tajribalarini o'rganish va yurtimizga qaytib o'z tajribalarini tatbiq etishni nazarda tutgan edi.

Prezident stipendiyasi ham joriy etildi. 1993-yil 5-fevralda PF-555-sonli "O'zbekistonning o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi farmon [<https://lex.uz/docs/189598>, 5] qabul

qilindi. Bu farmon orqali tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan va butun o'qishi davrida a'lo baholarga o'qigan oxirgi o'quv yili talabalari uchun Prezident stipendiyasi ta'sis etildi. Barcha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlari "a'lo" bo'lgan, ko'pi bilan 25 foizi "yaxshi" bo'lgan hamda ijodiy ishda qatnashadigan bakalavr ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan so'nggi ikki kurs talabalari uchun esa Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Kamoliddin Behzod, Ulug'bek stipendiyalari ta'sis etildi. Viloyatimiz hududidan Prezident stipendiyalari sohiblari sifatida Sherzod Alimov, Doniyor Gilmanova [5, 547] kabi yoshlarimizni keltirishimiz mumkin.

Mustaqillikka erishishimiz ko'plab yoshlarga ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o'sish imkoniyatini berdi. Eng asosiysi, barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida zarur ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, iste'dodli va qobiliyatli yoshlarimizni yuzaga chiqarish mumkin bo'ldi. Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga kirishildi. Ana shu maqsadda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

1998-yilda Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga asosan viloyatda o'rta maxsus kasb-hunar boshqarmasi tashkil qilinib, joylarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil etishga kirishildi. 1999-yilga kelib viloyatimizda keng ko'lamdagi qurilish ishlari amalga oshirildi. Natijada zamonaviy andozalar darajasida yangi qurilgan yana 12 ta kollej o'z faoliyatini boshladi.

Yangi qurilgan bu inshootlar Sharq va G'arb me'morchilik uslublarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, o'quv va laboratoriya xonalarining keng va yorug'ligi, mahalliy iqlim sharoiti to'la hisobga olinganligi bilan farq qilardi. Ayni paytda ular eng zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari, kompyuterlar, lingafon qurilmalari bilan ta'minlandi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ana shunday bilim maskanlaridan biri — Andijon tumanidagi Oqyor sanoat kasb-hunar kollejida bo'lib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi va o'quvchilarga yanada keng qulayliklar yaratish borasida o'zining taklif hamda ko'rsatmalarini berdi.

Shunisi e'tiborliki, yangi qurilayotgan akademik litseylar bir-birini sira takrorlamasdi. Oltinko'l, Andijon, Asaka, Shahrixon, Jalaquduq tumanlari hamda Xonobod shahrida qad ko'targan dastlabki binolar tashqi ko'rinishi bilan o'sha joyning ko'rkiga yanada chiroy qo'sha oldi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asosan mamlakatimizda dunyoda betakror hisoblangan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi joriy etildi. Unga asosan yangi hayotga qadam qo'yayotgan o'smirlarga 2–3 xildagi zamonaviy kasblarni puxta egallashlari uchun keng imkoniyat yaratildi.

Ayni paytda o'quvchilarga puxta bilim berish, kasb-hunar o'rgatish maqsadida ushbu tizimga eng malakali pedagog-muhandislar jalb qilindilar. Ular orasida fan doktorlari va nomzodlari, oliy toifali mutaxassislarning borligi ta'lim sifatini yanada yaxshilash imkoniyatini berdi. Shahrixon ko'hna va betakror hunarmandchilik maskanlaridandir. Viloyat hunarmandlarining qariyb yarmi shu tumanda istiqomat qiladi.

Sharq donishmandlari aql-zakovat va ilmni eng katta boylik, yaxshi tarbiyani bebaho meros, bilimsizlikni esa ayanchli qashshoqlik deb bilganlar. Turkiy xalqlarning ulug' shoiri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham insonning bilim quvvati va aqliy salohiyati behad ulug'lanadi. Allomaning bundan ming yil avval aytgan "O'quv qut beradi, bilim — sharaf-shon, shu ikkov tufayli ulug'dir inson", degan hikmatli gapi bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan [3, 133].

Prezidentimiz yoshlarga e'tiborni kuchaytirishimiz, ular uchun imkoniyatlar eshigini ochishimiz zarurligini ta'kidlagan. Chindan ham, yoshlar davlatimizning eng katta boyligi, bebaho duri hisoblanadi. Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1, 2].

Ahamiyat bersak, O'zbekistonda sportga e'tibor berilishi mamlakatimizning dunyoga tanilishiga olib keldi, deb ayta olamiz. Istiqloq sharofati bilan har bir mahallada sportga yo'naltirilgan seksiyalar tashkil etila boshlandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, o'qish va mehnat faoliyati bilan band bo'lmagan yoshlarni tosh ko'tarish, armrestling, shaxmat, shashka va stol tennisi kabi ommaviy sport turlariga jalb qilish, ularning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishiga erishishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan olib borilgan islohotlar

natijasida ilm-fan sohasini rivojlantirish maqsadida joriy qilingan qonunlarni o'rganish va natijalarini solishtirish imkoniyati yuzaga keldi. Mazkur maqola ko'plab ilmiy maqolalar, Prezident farmonlari, qonunlar hamda Andijon davlat arxivi hujjatlaridan foydalangan holda yoritildi. Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Xulosa. Istiqloq yillarida ilm-fan sohasida yangi qonun va farmonlar ijrosi yoshlarimizning kundan-kunga o'sishiga imkoniyat yaratdi. Yoshlar har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Har bir jabhada imkoniyatlar eshigi ochilayotgani, yoshlarimizning o'z ustida ishlashi uchun yurtimiz hududlarida ko'plab loyihalar tashkil etilayotgani davlatimiz tomonidan yoshlarga juda katta e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Andijon viloyati yoshlarining so'nggi yillarda turli sohalarda erishayotgan ko'plab yutuqlari alohida e'tiborga loyiqdir. Viloyatda yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // Xalq so'zi. — 2017-yil 17-fevral. — № 35. — B. 2.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik — milliy g'oyamizning poydevoridir. — Toshkent: Tasvir, 2021. — B. 25–27.
3. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. — Toshkent: O'zbekiston, 2024. — 133 b.
4. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. — Toshkent: O'zbekiston, 1999. — 48 b.
5. Shamsutdinov R.T., Isakov A.A. Andijon tarixidan lavhalar. — Toshkent, 2013. — 547 b.
6. Yo'ldashev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. — Toshkent: O'qituvchi, 2000.
7. Andijon viloyati Mehnat bandligi va aholini ijtimoiy himoya qilish boshqarmasi faoliyatiga oid hujjatlar // Andijon viloyati arxivi. — 734-fond.
8. Karimov A. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida yoshlarning o'rni (1991–2021-yillarda Surxondaryo viloyati misolida): 07.00.01 — O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Termiz, 2025. — 11 b.
9. URL: Lex.uz <https://lex.uz/docs/479130>
10. URL: Lex.uz <https://lex.uz/docs/189598>